

12. Yaxlit songacha qo'shish (31 + 9)

Yondosh mavzu:

Suv

Xona birliklari,
yaxlit sonlar.



1. Hisoblang va O'zbekistonning eng yirik sun'iy suv ombori qanday atalishini bilib oling.

A	$12 + 8$	L	$57 + 3$
D	$26 + 4$	O'	$64 + 6$

Y	$32 + 8$	R	$71 + 9$
K	$49 + 1$	E	$85 + 5$

20	40	30	20	80	50	70	60

2. Yig'indini hisoblang.


Hisoblashning qulay usulini toping

$$21 + 34 + 15 + 6 + 5 + 9$$

$$32 + 13 + 26 + 8 + 4 + 7$$

3. Ushbu jonivorlar qanday chuqurlikda yashaydi?

metr



- Baliqlar
- Mollyuskalar
- Qisqichbaqalar
- Meduzalar
- Delfinlar
- Toshbaqalar

Ulardan qaysilari bizning suv havzalarimizda yashaydi?



4. Namunaga qarab misollarni yeching.

Namuna:

$$72 + 8 = 70 + (2 + 8) = 70 + 10 = 80$$

29 + 1	46 + 4
48 + 2	54 + 6
37 + 3	33 + 7
76 + 4	25 + 5




5. Uchta o'quvchi Orol dengizi haqida axborot tayyorlashdi.

Birinchi o'quvchi 4 minut, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchidan 3 minut ko'proq, uchinchi o'quvchi ikkinchi o'quvchidan 2 minut kamroq ma'ruza o'qidi. Ularning ma'ruzasi necha minut davom etdi?



6. Rasm qanday kesmalardan, to'g'ri va egri chiziqlardan tuzilgan?
Ularni ayting.



7. Dala maydonida uchta quduq qazildi. Birinchi quduqdan 12 ta ekin maydoni, ikkinchi quduqdan xuddi shuncha ekin maydoni sug'oriladi. Uchinchi quduqdan 6 ta ekin maydoni sug'oriladi. Jami nechta ekin maydoni sug'oriladi?



8. Hisoblang.

$$21 \text{ dm} + 9 \text{ dm}$$

$$64 \text{ cm} + 6 \text{ cm}$$

$$51 \text{ kg} + 9 \text{ kg}$$

$$77 \text{ kg} + 3 \text{ kg}$$

$$83 \text{ l} + 7 \text{ l}$$

$$45 \text{ l} + 5 \text{ l}$$

$$32 \text{ dm} + 8 \text{ dm}$$

$$23 \text{ cm} + 7 \text{ cm}$$

$$52 \text{ l} + 8 \text{l}$$